# Hadis ilmining sultoni

Hadis - hayotning  bezagi, inson qalbining ziynatidir. Uni oʻqib, oʻqish orqali oʻrganish hayotning va yurtning qadriga yetishni, shukronalik hissini qalbda tuyishni oʻrgatadi. Qalbdagi qanoat hissi hayotsevarlik tuygʻusi hamda oʻzaro munosabatlardagi samimiylikni ifoda etadi. Hadisshunos inson chinakam olim va valiyullohdir. Imom Buxoriy hazratlariga bu fikrni nisbat qilish oʻrinlidir.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining “Gidromelioratsiya” fakulteti dekani A.Fatxullaev, ma’naviy-ma’rifiy ishlar boʻyicha dekan oʻrinbosari, X.Toʻychiev, fakultet xotin-qizlar qoʻmitasi boshlangʻich tashkiloti raisasi D.Madazizova, hamda fakultet Yoshlar ittifoqi boshlangʻich tashkiloti raisi S. Vapaev va fakultetning iqtidorli talabalari ishtirokida joriy yilning 6 aprel kuni 4-ma’ruzalar zalida “Hadis ilmining sultoni” Imom Al-Buxoriy sharafiga bagʻishlangan adabiy-badiiy tadbir boʻlib oʻtdi.

Oradan asrlar oʻtsa-da, Imom Al-Buxoriyning ma’naviy merosi eskirmaydi, ul zotni oʻrganganingiz sari yangi-yangi ma’nolar kashf etib boraverasiz. Tadbirda fakultetning faol yoshlari A.Zokirjonov, N.Iskandarova, Sh.Maxmudov, S. Ravshanov, S. Imomalieva, K.Jumanazarovalar oʻz chiqishlari bilan ishtirok etib, buyuk bobokalonimizning hayoti va ijodi, yaratgan asarlari haqida ma’lumotlar berib, allomaning ijodidan namunalar keltirishdi.

**GM fakulteti dekan oʻrinbosari X.Tuychiev axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.**